

O'G'ITLASH ME'YORLARI VA KO'CHAT QALINLIGINING QOVUN MEVALARINING SIFAT KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI.

Satipov Gaipnazar Matvapayevich

Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor. Biologiya kafedrası.

Yusupova Azada Kadambayevna

Tayanch doktorant; Abu rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti.

Annatatsiya: Maqolada o'g'itlash me'yorlari va ko'chat qalinligining qovun mevalarining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilgan bo'lib, o'g'it me'yori gektariga $N_{200}:P_{120}:K_{90}$ hamda $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ bo'lgan fonlarda hosildorlik ko'rsatkichlari barcha navlarda oshganligi ko'rsatilgan. Yana shuningdek azot, fosfor va kaliy kabi o'g'itlarning o'simliklarni o'sishi va meva hosil qilishi uchun muhim ekanligi kabi masalalar ham yoritilgan.

Kalit so'zi: Qovun, hosildorlik, NPK, agrotexnika, qand miqdori, azot, kenja tur, ekishi sxemasi, fosfor.

Аннотация: В статье изучено влияние норм удобрений и густоты посадки на качественные показатели плодов дыни. Показано, что на фонах с нормами удобрений $N_{200}:P_{120}:K_{90}$ и $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ урожайность всех сортов увеличилась. Кроме того, освещены вопросы о важности таких удобрений, как азот, фосфор и калий, для роста растений и формирования плодов.

Ключевое слово: дыня, урожайность, NPK, агротехника, содержание сахара, азот, подвид, схема.

Annotation: The article examines the effect of fertilization rates and planting density on the quality indicators of melon fruits. It was shown that under fertilizer rates of $N_{200}:P_{120}:K_{90}$ and $P_{250}:N_{140}:K_{90}$, the yield of all varieties increased. The article also highlights the importance of fertilizers such as nitrogen, phosphorus, and potassium for plant growth and fruit formation.

Key word: melon, yield, NPK, agricultural technology, sugar content, nitrogen, subspecies, planting scheme, phosphorus.

Qovun O'zbekistonning turli vodiylarida va vohalaridagi sug'oriladigan dehqonchilikning katta maydonlarida qadimdan yetishtirib kelinmoqda. Bu

kengliklarda tabiiy va maqsadli tanlashlar natijasida qovunning biologik va xo'jalik jihatidan bir-biridan farqlanuvchi turli shakllari va o'ziga xos navlari yuzaga kelgan. Hozirgi paytda mamlakatimizda qovunning 160 ga yaqin navi yetishtirilmoqda. Amudaryoning quyi qismida qovunning Kichik va O'rta Osiyo kenja turi, boshqa mintaqalarda esa faqat O'rta Osiyo turi yetishtiriladi [1].

Ko'p sonli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, noorganik va organik o'g'itlarni kompleks qo'llash ekin hosildorligini oshirishning samarali usulidir. organik o'g'itlarni qo'llash natijasida hosildorlik va sifatning oshishi asosan tuproqdagi oziq moddalari darajasi va mikroba faoliyatining yaxshilanishi bilan bog'liqdir[2].

Qovunning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri - bu o'simliklarga berilgan o'g'itlardir. O'g'it turlari qovunning o'sishini va ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. O'g'itlar asosan organik, mineral va organomineral turlariga bo'linishi mumkin. Bu o'g'itlar har birining o'zining xususiyatlari va qovun rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin[3].

Erta pishar qovun navlari Xorazm vohasining tuproq-iqlim sharoitida ertagi va sifatli hosil olish uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, maqsadli o'g'itlash va ekish sxemalarini qo'llash orqali nafaqat hosildorlikni oshirish, balki meva sifatini ham yaxshilash, pirovardida esa aholining mahsulotga bo'lgan talabini qondirish va eksport salohiyatini oshirish mumkin.

Qovun yetishtirishda hosildorlikni oshirish va mevalarning asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan qand miqdorini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu ikki ko'rsatkich bevosita agrotexnik tadbirlar, xususan, o'g'itlash me'yorlari va ko'chat qalinligi bilan bog'liq. Ushbu tahlilda, azot (N), fosfor (P), kaliy (K) o'g'itlarining turli me'yorlari va ekish sxemalarining qovun hosildorligi hamda mevalardagi qand miqdoriga ta'siri aniqlandi va tahlil qilindi.

Tahlil natijalarga ko'ra o'g'it me'yorining oshirilishi ya'ni gektariga $N_{200}:P_{120}:K_{90}$ hamda $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ berilgan fonlarda hosildorlik ko'rsatkichlari barcha navlarda oshganligi ko'rsatilgan. Bu azot, fosfor va kaliyning o'simlikning o'sishi va meva hosil qilishi uchun muhim ekanligini tasdiqlaydi. O'g'it me'yori gektariga $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ berilgan fonda me'yordagi qo'shimcha oziq moddalar o'simliklarning samarali rivojlanishiga va ko'proq meva tugishiga yordam berganligini ko'rsatadi.

Ekish sxemasi (150x50 sm) ko'proq o'simlik birligiga ega bo'lgani uchun, ko'pchilik hollarda kengroq sxema (150x70 sm) ga nisbatan yuqoriroq hosildorlikni ta'minlagan.

Tajribalarda o'rganilgan navlar ichidan O'g'it me'yori gektariga $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ berilgan va ekish sxemasi 150x70 sm bo'lgan fonda hosildorlik ko'rsatkichi eng yuqori bolib, "Bo'rikalla" navida 37,5 t/ga va "Kivi" navida 37,3 t/ga ni namoyon etgan. Bu ushbu navlarning intensiv etishtirish texnologiyalariga yaxshi moslashganini bildiradi.

Ekish sxemasi nuqtai nazaridan, zichroq ekish ya'ni 150x50 sm bo'lgan fonda ba'zi hollarda qand miqdorining pasayish holatlariga olib kelishi mumkin, chunki har bir o'simlikka to'g'ri keladigan yorug'lik va oziq moddalar miqdori cheklanadi. Biroq, optimal o'g'itlash bilan bu kamchilikni bartaraf etish mumkin.

O'g'it me'yori gektariga $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ berilgan va ekish sxemasi 150x70 sm bo'lgan fonda qand miqdorining yuqoriligi kuzatilgan bo'lib, bu yuqori hosildorlik va me'yorining umumiy ijobiy ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mevalardagi qand miqdori hosildorlik kabi to'g'ri chiziqli munosabatda emas. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki yuqori O'g'it me'yori gektariga $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ berilgan fonda hosildorlikni oshirsada, ba'zi hollarda qand miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

O'g'it me'yori gektariga $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ berilgan bo'lgan fonda me'yoridagi variantlarda qand miqdori, o'sha navning $N_{200}:P_{120}:K_{90}$ me'yoridagi fonga nisbatan pastroq yoki faqatgina biroz yuqori bo'lgan. Bu azotning o'simlikda vegetativ massaning rivojlanishiga ko'proq e'tibor qaratishi va uglevodlarning mevalarga to'planishini sekinlashtirishi yoki kamaytirishi bilan izohlanadi.

Zichroq ekish 150x50 sm yuqori hosildorlikni ta'minlagani bilan birga, ayniqsa yuqori azot fonida, o'simliklar o'rtasidagi raqobat va yorug'lik etishmovchiligi tufayli qand miqdorining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ammo, O'g'it me'yori gektariga $P_{250}:N_{140}:K_{90}$ me'yoridagi 150x70 sm fonda qand miqdorining yanada pastligi kuzatilgan, bu yuqori azot va kamroq o'simlik zichligining o'zaro ta'siri natijasi bo'lishi mumkin.

Navlar bo'yicha "Bo'rikalla" va "Kivi" navlari boshqa navlarga nisbatan yuqoriroq qand miqdoriga ega bo'lgan, hatto azot miqdori yuqori bo'lganda ham. Bu ushbu navlarning genetik xususiyatlari qand to'plash qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Azot me'yorini oshirish hosildorlikni oshirsada, qand miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zida O'g'it me'yori gektariga $N_{200}:P_{120}:K_{90}$ berilgan

fonda o'rtacha azot me'yori, yuqori qand miqdorini saqlab qolgan holda, etarlicha hosildorlikni berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zuev Vladimir Ilich, Qodirxo'jaev Orif, Adilov Maxsud Mirvasitovich, Akramov Umidilla Ikramdjanovich - Sabzavotchilik va polizchilik o'quv qo'llanma - Toshkent 2010 B. 228-229.
2. Liu, J.; Shu, A.; Song, W.; Shi, W.; Li, M.; Zhang, W.; Li, Z.; Liu, G.; Yuan, F.; Zhang, S.; et al. (2021). Long-term organic fertilizersubstitution increases rice yield by improving soil properties and regulating soil bacteria. Geoderma, 404, 115287.
3. Mpanga I.K., Tronstad R., Guo J., LeBauer D.S., Idowu O.J. (2021). On-farm land management strategies and production challenGES in United States organic agricultural systems. Current Research in Environmental Sustainability, 3, 100097.